

MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Ro‘ziboyeva Mushtariy Otabek qizi – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
(mushtariy1899@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Unda joyga asoslangan siyosatlar, fiskal choralar, inson kapitaliga investitsiyalar, raqamli transformatsiya va mintaqaviy integratsiyaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, global tendensiyalar hamda xalqaro tashkilotlar tajribasi asosida tengsizlikni kamaytirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Mintaqaviy tafovutlar, fiskal siyosat, inson kapitali, raqamli transformatsiya, integratsiya, barqaror rivojlanish, investitsiyalar.

Аннотация. В данной статье на научной основе проанализированы приоритетные направления сокращения межрегиональных экономических различий. Рассмотрены роль территориально-ориентированной политики, фискальных мер, инвестиций в человеческий капитал, цифровой трансформации и региональной интеграции. Также на основе глобальных тенденций и опыта международных организаций раскрыты механизмы снижения неравенства. В результате исследования разработаны практические рекомендации по сокращению дисбалансов регионального развития.

Ключевые слова. Региональные различия, фискальная политика, человеческий капитал, цифровая трансформация, интеграция, устойчивое развитие, инвестиции.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the priority directions for reducing interregional economic disparities. It examines the role of place-based policies, fiscal measures, investments in human capital, digital transformation, and regional integration. The study also explores mechanisms for reducing inequality based on global trends and the experience of international organizations. As a result, practical recommendations for minimizing regional development imbalances are proposed.

Keywords. Regional disparities, fiscal policy, human capital, digital transformation, integration, sustainable development, investments.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichida mintaqalar orasidagi iqtisodiy tafovutlar global iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global miqyosda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida sanoat va xizmat ko‘rsatish sektorlarida ilg‘or shaharlar hamda metropoliyalar iqtisodiy o‘shishning asosiy markazlariga aylangan bir davrda, rivojlanishdan orqada qolayotgan mintaqalar – qishloq hududlari, chekka viloyatlar va rivojlanayotgan davlatlarning ayrim qismlari – daromad darajalari, bandlik ko‘rsatkichlari va infratuzilma rivoji bo‘yicha sezilarli darajada qoloqlikni namoyon etmoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasida 10-maqsad – mamlakatlar ichida va orasida tengsizlikni kamaytirish – bu muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lib, resurslarni adolatli taqsimlash, ta’lim va malaka oshirishga investitsiya qilishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Ushbu tafovutlar nafaqat iqtisodiy samarasizlikka, balki ijtimoiy taranglikka, migratsiya oqimlariga va hatto siyosiy beqarorlikka olib keladi [1].

Hozirgi zamonaviy tendensiyalar bu muammoni yanada murakkablashtirmoqda, ammo bir vaqtning o‘zida yangi yechimlar uchun imkoniyatlar yaratmoqda. COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda ekstremal qashshoqlik darajasi qisman pasaygan bo‘lsa-da, energetika narxlari o‘zgarishi, tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishi kabi omillar mintaqaviy tengsizlikni kuchaytirmoqda [2]. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish siyosati tengsizlik va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi muvozanatni saqlashi lozim, chunki adolatli taqsimlash samaradorlikka zid kelmaydi, aksincha, uni kuchaytiradi [3].

So‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar hamda xalqaro tashkilotlar, mamlakatlar tomonidan olib borilayotgan siyosatlar jahon mamlakatlari mintaqalari iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish hamda bartaraf etish quyidagi asosiy tendensiyalarga tayanadi:

Yo‘nalishi	Mazmuni
1 – yo‘nalish: Joyga asoslangan siyosatlar	Joyga asoslangan siyosatlar mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki ularni ishlab chiqish jarayonida hududning geografik sharoitlari, iqtisodiy struktura va ijtimoiy omillari kabi mahalliy xususiyatlar to‘liq inobatga olinadi. Ilmiy asosda, bu siyosatlar Pol Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasiga tayangan bo‘lib, shahar agglomeratsiyalarining tabiiy ustunligini muvozanatlashtirishni maqsad qiladi. OECDning 2025-yilgi "Place-Based Policies for the Future"[4] hisoboti bu siyosatlarni global

	<p>megatrendlar (iqlim o‘zgarishi va sun’iy intellekt) bilan bog‘lab, orqada qolgan hududlarga moslashtirilgan investitsiyalarni taklif etadi.</p>
<p>2 – yo‘nalish: Fiskal siyosatlar</p>	<p>Fiskal siyosatlar – daromadni qayta taqsimlash va ijtimoiy himoya choralarini o‘z ichiga oladi, bu esa mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishning muhim vositasi. Ilmiy jihatdan, bu siyosatlar inklyuziv o‘shish konsepsiyasiga asoslanadi, bu nazariya bo‘yicha progressiv soliqlar va transferlar nafaqat tengsizlikni kamaytiradi, balki umumiy iqtisodiy o‘shishni ham kuchaytiradi. IMFning 2022-yilgi “Tackling Inequality on All Fronts” hisoboti shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar va transferlar rivojlangan mamlakatlarda daromad tengsizligini kamaytirishga olib kelgan. World Inequality Report 2026 ga ko‘ra, Soliqlar va transfertlar jamiyatlar jamoat tovarlarini moliyalashtirish va tengsizlikni kamaytirish uchun eng kuchli vositalar qatoriga kiradi. Progressiv soliqqa tortish ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi va haddan tashqari boylikning siyosiy ta’sirini cheklaydi. Shunga qaramay, soliq progressivligi eng yuqori cho‘qqisida qulaydi: yuz millionerlar va milliarderlar ko‘pincha aholining aksariyat qismiga nisbatan mutanosib ravishda kamroq soliq to‘laydilar [5].</p>
<p>3 – yo‘nalish: Ta’lim va inson kapitali investitsiyalari</p>	<p>Ta’lim va malaka oshirish siyosatlari orqada qolgan mintaqalardagi aholi uchun imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan. Ilmiy asosda, bu siyosatlar inson kapitali nazariyasiga (Gary Becker) asoslanadi, bu nazariya bo‘yicha ta’lim investitsiyalari uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni ta’minlaydi. Jahon Bankining 2025-yilgi "Sharing Prosperity" forumi ta’limni tengsizlikni kamaytirishning asosiy vositasi sifatida belgilaydi.</p> <p>Ta’limning zamonaviylashuvi raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, moslashuvchan o‘quv dasturlari va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon inson kapitalini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda muhim natijalar bermoqda:</p> <p><u>Masofaviy va onlayn ta’limning rivojlanishi.</u> UNESCO ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 1,6 milliard o‘quvchi raqamli platformalar orqali ta’lim oldi, bu pandemiyadan oldingi ko‘rsatkichdan 5 baravar ko‘p.</p>

	<p>Onlayn ta'lim bozori hajmi 2025-yilga kelib 400 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda [6].</p>
<p>4 – yo‘nalish: Raqamli va sanoat transformatsiyasiga qaratilgan siyosatlar</p>	<p>Raqamli siyosatlar orqada qolgan hududlarni raqamli iqtisodiyotga ulashga qaratilgan. Ilmiy jihatdan, bu siyosatlar texnologik diffuziya nazariyasiga asoslanadi, bu nazariya bo‘yicha raqamli infratuzilma tafovutlarni yumshatadi. OECDning 2025-yilgi “Place-Based Industrial Policy” hisoboti sanoat siyosatlarini mahalliy joylarga moslashtirishni taklif etadi [7].</p> <p>Raqamli transformatsiya — AKT, sun‘iy intellekt (AI), Big Data, IoT va boshqa zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyot, ta’lim hamda ijtimoiy sohalarga strategik integratsiya qilishning kompleks jarayonidir. Bu inson kapitalini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda muhim o‘zgarishlarga olib keldi:</p> <p>Mehnat bozori talablarining o‘zgarishi. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga kelib global mehnat bozoridagi ishlarning 85% raqamli ko‘nikmalarga asoslangan bo‘ladi. Hozirda dunyodagi ish beruvchilarning 67% raqamli savodxonlik va dasturiy ta‘minot bilan ishlash ko‘nikmalarini talab qilmoqda [8]. _Raqamli transformatsiya avtomatlashtirish va AI tufayli an‘anaviy kasblarning 30% gacha qisqarishiga olib keladi, lekin yangi kasblar (masalan, ma’lumotni tahlil qilish, kiberxavfsizlik, AI muhandisligi) yaratilmoqda. Masalan, LinkedIn ma’lumotiga ko‘ra, 2020-2025-yillarda ma’lumot tahlilchisi va bulutli hisoblash mutaxassisi kabi kasblarga talab 40% ga oshgan.</p> <p>Raqamli infratuzilmaning kengayishi. Xalqaro Telekomunikatsiya Ittifoqi (ITU) ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yilda dunyo aholisining 67% internetga ulangan, bu 2015-yildagi 43% dan sezilarli o‘shishni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng polosali internet qamrovi 2019-yildagi 35% dan 2024-yilda 50% ga yetdi [9]._Raqamli infratuzilmaning kengayishi masofaviy ta’lim, onlayn kurslar va raqamli platformalar orqali bilim olish imkoniyatlarini oshirdi. Masalan, Coursera va edX kabi platformalarda 2023-yilda 120 million foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan, bu raqam 2020-yilga nisbatan 50% ga ko‘p.</p>
<p>5 – yo‘nalish: Mintaqaviy integratsiya</p>	<p>Mintaqaviy integratsiya siyosatlari savdo va hamkorlik orqali tafovutlarni kamaytiradi. Ilmiy asosda, bu siyosatlar savdo nazariyasiga (Ricardo) asoslanadi, bu nazariya bo‘yicha integratsiya resurslarni samarali taqsimlaydi [9].</p>

**6 – yo‘nalish:
 Iqlim siyosati va
 barqaror
 rivojlanishning
 o‘zaro bog‘liq
 yondashuvlari**

Barqaror siyosatlar iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda tafovutlarni kamaytiradi. Ilmiy jihatdan, bu siyosatlar ekologik iqtisodiyot nazariyasiga asoslanadi. OECD kelgusi davrlarda iqlim neytralligini mahalliy siyosatlar bilan bog‘laydi[10].

Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, resurslardan tejamkor foydalanadigan va ijtimoiy farovonlikni oshiradigan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Bu inson kapitalini rivojlantirishda yangi kasblar, malaka oshirish va innovatsion ta’lim tizimlarini rivojlantirish orqali katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma’lumotiga ko‘ra, 2018-yilda yashil iqtisodiyot sohasida global miqyosda 24 million ish o‘rni mavjud edi va 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 100 millionga yetishi kutilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya sohasi 2020-yilda 12 million ish o‘rni yaratdi, bu 2015-yildagi 8,1 milliondan sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi.

Yashil iqtisodiyot “yashil” ko‘nikmalarga talabni oshirib, inson kapitalini rivojlantirishda kasbiy tayyorgarlikni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Masalan, shamol va quyosh energiyasi muhandisligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni qayta ishlash sohasida mutaxassislar talabi global miqyosda 20% ga oshdi. Bu esa ta’lim tizimlarida yangi dasturlarni joriy qilish va qayta tayyorlash kurslarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarni inobatga olgan holda hamda Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasida belgilangan maqsadlarga ilmiy asoslangan yondashuv asosida, mamlakat hududlarining iqtisodiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarni qisqartirishga qaratilgan aniq ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- Strategiyaning uchinchi yo‘nalishi (kuchli iqtisodiyot) va oltinchi yo‘nalishi (yashil rivojlanish) doirasida joyga asoslangan siyosatlar mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishning asosiy vositasi sifatida belgilangan. Bu siyosatlar mahallalar vakolatlarini kengaytirish, moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etishni o‘z ichiga oladi;
- Strategiyaning uchinchi yo‘nalishi (milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish) fiskal siyosatlarni progressiv soliqlar va transferlar orqali mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga qaratgan. Bu startegiyada ta’kidlanganidek, xususiy sektor va global integratsiyani qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq;

- Strategiyaning birinchi va beshinchi yo‘nalishlari (inson qadri va ta’lim/ma’naviyat) ta’lim va malaka oshirishni mintaqaviy rivojlanishning markaziga qo‘ygan. Ilmiy jihatdan, inson kapitali nazariyasi bo‘yicha bu investitsiyalar bandlikni oshirib, tafovutlarni kamaytiradi, masalan, shahar va tumanlarda kasb-hunar ta’limini rivojlantirish orqali;
- Strategiyaning uchinchi yo‘nalishi (25-maqсад, Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirish) raqamli texnologiyalarni mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga qaratgan, masalan, raqamli moliyaviy inklyuziya va sanoat korxonalarini rivojlantirish. Ilmiy asosda, texnologik diffuziya nazariyasi bo‘yicha raqamlashtirish qishloq hududlarini shaharlar bilan bog‘laydi;
- Strategiyaning oltinchi yo‘nalishi (80-maqсад, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash) iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda barqarorlikni ta’kidlaydi. Ilmiy asosda, ekologik iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha bu siyosatlar tabiiy ofatlarga qarshi chidamlilikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations. (n.d.). Goal 10: Reduce inequality within and among countries. United Nations Sustainable Development Goals. <https://sdgs.un.org/goals/goal10>
2. López-Calva, L. F., Haddad, C. N., Lara Ibarra, G., & Mahler, D. G. (2026, January 7). Post-pandemic trends in extreme poverty around the world. World Bank Blogs.
3. Floerkemeier, H., Spatafora, N., & Venables, A. J. (2021). Regional disparities, growth, and inclusiveness (IMF Working Paper No. 21/38). International Monetary Fund.
4. OECD (2025), *Place-Based Policies for the Future*, OECD Regional Development Studies, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/e5ff6716-en>
5. UNESCO – Global Education Monitoring Report 2023, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000383607>
6. OECD (2025), “Place-based industrial policy: Lessons for place transformation”, *OECD Local Economic and Employment Development (LEED) Papers*, No. 2025/03, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/43edc0df-en>
7. World Economic Forum – The Future of Jobs Report 2023, <https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2023/>
8. ITU – Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024
9. de Groot, E., & Koopman, S. (2025). Global outlook 2026: New rules, different economy. RaboResearch. <https://www.rabobank.com/knowledge/q011509552-global-outlook-2026-new-rules-different-economy>
10. Syssner, J. (2023), “Place-based policy objectives and the provision of public goods in depopulating areas: equality, adaptation, and economic sustainability”, Background

paper for the OECDEC High-Level Expert Workshop Series on “Place-Based Policies for the Future”, Workshop 3, 9 June 2023, <https://www.oecd.org/cfe/regionaldevelopment/place-based-policies-for-the-future.htm>